

## A2 DARAJADAGI O'QUVCHILARGA INGLIZ TILI PREDLOGLARINI KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QITISHNI SHAKLLANTIRISH

**Sobirova Intizor Muhammadqulovna**

**Navoiy shahar 15-IDUM ingliz tili fani o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada A2 darajadagi o'quvchilarga ingliz tili predloglarini kommunikativ yondashuv asosida o'qitishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritilgan. Predloglarni o'rgatishda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, ularni real hayotiy vaziyatlarda erkin qo'llashga o'rgatish, interfaol metodlardan samarali foydalanish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, predloglarni o'qitishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kommunikativ yondashuv, A2 daraja, ingliz tili, predloglar, nutqiy kompetensiya, interfaol metodlar, til o'qitish metodikasi, dialog, kommunikativ mashqlar, o'quv jarayoni.

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish tizimida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganayotgan A2 darajadagi o'quvchilar uchun grammatik birliklarni faqat nazariy jihatdan emas, balki kundalik muloqot jarayonida to'g'ri va o'rinli qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilidagi predloglar o'quvchilar eng ko'p xato qiladigan grammatik birliklardan biri bo'lib, ularning ma'nosi ko'pincha o'zbek tilidagi ifodalar bilan to'liq mos kelmaydi. Shu sababli predloglarni yodlash emas, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash asosida o'rgatish samaraliroq natija beradi. Kommunikativ yondashuv o'quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar o'zaro muloqot qilish, fikr almashish, savol-javoblar tashkil etish, juftlik va guruhlarda ishlash orqali

predloqlardan tabiiy foydalanishni o'rganadilar. Natijada grammatik bilimlar sun'iy mashqlar emas, balki hayotiy vaziyatlar bilan bog'langan holda mustahkamlanadi.

A2 darajadagi o'quvchilar ingliz tilining boshlang'ich bosqichidan keyingi bosqichida bo'lib, ular sodda matnlarni tushunish, qisqa dialoglarda ishtirok etish hamda kundalik hayotga oid mavzularda oddiy fikrlarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Mazkur bosqichda predloqlarni o'zlashtirish nutq ravonligi va grammatik aniqlikni ta'minlashda muhim omillardan biridir. Predloglar joyni, vaqtni, yo'nalishni, harakatni va turli munosabatlarni ifodalashda xizmat qiladi. Masalan, in, on, at, under, behind, between, near, next to, into, from, to kabi predloglar kundalik muloqotda doimiy uchraydi. O'quvchilar ushbu birliklarni faqat qoida asosida emas, balki muloqot davomida qo'llash orqali ularning haqiqiy vazifasini anglay boshlaydilar. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi tilni o'rganishni tabiiy muloqot jarayoniga yaqinlashtirishdan iborat. Shu sababli predloqlarni o'qitishda o'qituvchi turli hayotiy vaziyatlarni yaratishi zarur. Masalan, sinf xonasidagi buyumlardan foydalanib "The book is on the table", "The bag is under the chair", "The teacher is near the board" kabi gaplarni o'quvchilar bilan birgalikda tuzish samarali natija beradi. Keyinchalik o'quvchilar ushbu namunalar asosida mustaqil gaplar tuzadilar, savollar beradilar va bir-birining javoblarini to'ldiradilar. Bunday faoliyat predloqlarning ma'nosini amaliy ravishda tushunishga yordam beradi.

Predloqlarni o'rgatishda vizual vositalar ham muhim ahamiyatga ega. Rangli rasmlar, kartochkalar, maketlar, animatsiyalar, interaktiv taqdimotlar hamda elektron platformalar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Ayniqsa, buyumlarning joylashuvini tasvirovchi rasmlar asosida dialog tuzish, xaritalardan foydalanish, yo'nalishlarni tushuntirish yoki sinf ichidagi predmetlarni tavsiflash kabi topshiriqlar o'quvchilarning kommunikativ faolligini rivojlantiradi. Interfaol metodlardan foydalanish ham yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. "Juftlikda ishlash", "Rolga kirish", "Aqliy hujum", "Savol-javob", "Top va ayt", "Rasm asosida hikoya tuzish", "Klaster", "Insert" kabi metodlar orqali

o'quvchilar predloqlarni tabiiy ravishda qo'llaydilar. Masalan, "Yo'lni tushuntirish" mavzusida bir o'quvchi sayyoh, ikkinchisi esa mahalliy aholi rolini bajaradi. Ular "Go across the street", "Turn left at the bank", "The museum is next to the library" kabi gaplardan foydalanadilar. Natijada grammatik bilim kommunikativ ko'nikmaga aylanadi.

Predloqlarni o'qitishda tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarini birgalikda rivojlantirish muhimdir. O'quvchilar qisqa matnlarni tinglab predloqlarni aniqlaydilar, matn mazmuni asosida savollarga javob beradilar, keyin esa o'zlari shunga o'xshash matn yaratadilar. Ushbu integratsiyalashgan yondashuv predloqlarning esda qolish darajasini oshiradi hamda ularni turli vaziyatlarda erkin qo'llash imkonini yaratadi. O'qituvchi tomonidan beriladigan qayta aloqa ham muhim omil hisoblanadi. O'quvchi xato qilganida uni darhol tanqid qilish o'rniga, to'g'ri variantni muloqot davomida tabiiy ravishda ko'rsatish ijobiy natija beradi. Bu usul o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini saqlaydi va chet tilida erkin gapirishga undaydi. Shuningdek, muntazam takrorlash, kichik loyihalar, o'yin elementlari va kundalik hayot bilan bog'liq topshiriqlar predloqlarni uzoq muddat xotirada saqlashga xizmat qiladi. Bugung raqamli ta'lim sharoitida mobil ilovalar, onlayn viktorinalar, interaktiv platformalar va multimedia resurslari kommunikativ yondashuvni yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. O'quvchilar audio va video materiallar asosida predloqlarni eshitib, ko'rib va amalda qo'llab o'rganadilar. Bu esa ularning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda zamonaviy ta'lim talablariga mos kompetensiyalarni shakllantiradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, A2 darajadagi o'quvchilarga ingliz tili predloqlarini kommunikativ yondashuv asosida o'qitish ularning grammatik bilimlarini amaliy nutq bilan uyg'unlashtirishda muhim o'rin tutadi. Kommunikativ metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, chet tilida erkin muloqot qilish

ko'nikmasini rivojlantiradi hamda predloqlarni real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash malakasini shakllantiradi. Interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, vizual materiallar va ijodiy topshiriqlarning uyg'unligi dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois ingliz tili darslarida predloqlarni o'qitishda kommunikativ yondashuvni izchil qo'llash zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. CEFR – Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press, 2020.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th Edition. Pearson Education, 2015.
4. Thornbury S. How to Teach Grammar. Pearson Education, 1999.
5. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
6. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Ingliz tili fanidan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.